

TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARNING PARRANDAXONADIGI TUXUMLARNI YEB QO'YISHI SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORALARI

Urinova Maloxatxon Isakbayevna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Assisenti

Annotatsiya: Shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda va parrandachilik fabrikalarida uy egasi yoki parrandaboqarlar tovuqlar uyalarga qo'ygan tuxumning o'rniga faqat nam joylarni topgan vaziyatlarga tushadilar: tovuqlar o'z tuxumlarini cho'qib, tuxum po'chog'i, qobig'ini va tuxum tarkibini yeyishadi. Natijada ko'plab miqdorda tovar maxsulot bo'lgan tuxum tovar sifatida sotilishi lozim bo'lsada boy berilib, katta iqtisodiy zarar ko'riladi. Tuxum qo'yadigan tovuqlarda bu xatti-harakatlarning oldini olish uchun sodir bo'layotgan xodisa sababni aniq aniqlash va qarshi kurashish uchun tegishli usulni tanlash kerak.

Kalit so'zlar: parrandalarni o'z tuxumini cho'qishi, bir birini cho'qishi (rasklev, kannibalizm), ozuqa moddalari: oqsil, yog', uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar yetishmasligi, ratsion, parrandalar biologiyasi, etologiyasi, tovuqlar zotlarining xususiyatlari, parrandalar gigienasi.

CAUSES AND PREVENTION OF EGG-EATING BEHAVIOR IN LAYING HENS IN POULTRY HOUSES

Urinova Malokhatkhon Isakbaevna

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Assisenti

Abstract: In both private backyard farms and poultry production facilities, poultry keepers often encounter situations where instead of finding eggs in the nests, they discover only wet spots—indicating that the hens have pecked and consumed their own eggs, including the shell and contents. As a result, a significant amount of eggs, which are considered valuable commercial products, are lost, leading to substantial economic losses. In order to prevent

such behavior in laying hens, it is crucial to accurately identify the underlying causes of this phenomenon and apply appropriate control measures.

Keywords: egg pecking in poultry, pecking behavior (rasklev, cannibalism), nutritional deficiencies: protein, fat, carbohydrates, minerals, vitamins, feeding ration, poultry biology, ethology, breed-specific characteristics of hens, poultry hygiene.

Shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida, xonadonlarida parranda boqadigan aholida ayrim xolatlarda o'z tuxumini yoki yonidagi boshqa makiyonlarning tuxumini cho'qib, yeb yuboradigan vaziyatga ko'plab duch kelinadi.

Tovuqlar tomonidan tuxumlarini cho'qishi va yeb qo'yish hodisasi ba'zan parranda kannibalizmi deb ataladi, uning sabablari quyidagilar:

Tovuqlarni noqulay (ortiqcha zichlik, talabga javob bermaydigan kataklarda) sharoitlarda asralishi[1;B -492-495].

Tovuqlarni saqlash joyida sanitariya-gigiena me'yorlariga rioya qilmaslik tovuqlar tomonidan o'z tuxumlarini cho'qishga olib keladigan yana bir muhim sababdir. Tovuqxonada ko'p miqdorda hasharotlarning paydo bo'lishi, parazitlar tomonidan tovuqlar terining ta'sirlanishi, shikastlanishi, tirnash xususiyati¹.

Tovuqlarni tor qafaslarda, juda zich qilib asralishi natijasida tovuqlar tanasi jarohatlanadi, natijada tovuqlarning fe'lida tajovuzkorlik kuzatiladi va tuxumlarni cho'qiy boshlashadi[1;B -492-495].

Tovuqlarning qiziquvchanligi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, dastlab tovuqlarning e'tiborini tuxumning oq rangi jalb qilishi mumkin. Tovuqlar qiziquvchan va yemak sifatida qurtlarni qidirish jarayonida barcha notanish narsalarni sinab ko'rishga, ta'mini bilishga moyil bo'lganligi sababli, ular o'zlarining ko'rish sohasida paydo bo'ladigan yangi ob'ektni tatib ko'radilar. Tovuq xom tuxumning ta'mini his qilgandan so'ng, u uni maqsadli ravishda cho'qib ko'rib iste'mol qila boshlaydi[1;B -492-495].

Tovuqlar o'z galasida yangi parrandalar paydo bo'lganda, boshqa xonalarga ko'chirilib o'tkazilganda, ratsionda ozuqa turlarini keskin

o'zgartirishda, yorug'lik yetishmasligida, begona odam, jonzotni to'satdanko'rganlarida stress xolatini boshdan kechiradi. Natijada parrandalar o'rnilaridan tez qo'zg'aladi, xar tomonga to'ziydi, uchadi, tartibsiz harakatlarni qilib, o'zlarini devorga, sim to'siqlarga uradilar va tanasini shikastlaydilar.

Tovuq zotlarining o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan tovuq zotlarning vakillari birgalikda galada yashashning dushmanlik, tajovuzkorlik uslubini qabul qilishga undaydigan instinktga ega. Agressiya yoki tajovuzkorlik kamdan-kam sababsiz kuzatiladi, odatda agressiya xolati tovuqlarda ochlik, tovuqxonadagi saqlash va asrash sharoiti noqulaylik bilan qo'zg'atiladi. Tajovuzkorlik Loman Braun, Orlov, Yurlov, Dakan va Koxinxin kabi zotlarning vakillariga xosdir.

Tovuqlarda kannibalizm xolatlari tuxum qo'yish va tulash (par va patlarning mavsumiy almashinuvi) davrlarida ro'y berishi ham mumkin.

Parrandalarni to'g'ri oziqlantirish ratsionini tuzish va unga qat'iy amal qilish. *Foiz nisbatida tovuqlar ratsionidagi ozuqalarning turlari nisbati quyidagicha bo'lgani ma'qul: 1) beshdan ikki qism (2/5) makkajo'xori doni, 2) beshdan ikki qism (2/5) bug'doy doni, 3) beshdan bir qism (1/5) kungaboqar doni (pista), kungaboqar shroti yoki kunjarasi, ozuqa bo'ri, so'ndirilgan oxak, shilliqqurt chig'anoqlari, vitaminli qo'shimchalar.* Yilning issiq paytlarida tovuqlar ozuqasiga yangi o'rilgan yashil barra o't maydalab qo'shiladi. Shuningdek tovuqlarga sut maxsulotlari – tvorog va qatiq zardobi xam berilishi kerak. Kechki vaqtda omuxta yem o'rniga butun makkajo'xori, bug'doy va arpa donlari berilsa xam bo'ladi, butun don organizmda sekinroq xazm bo'lishi evazigatovuq ertalab qattiq ochqab ketmaydi[1;B -492-495].

Yopiq joyda tovuqlar saqlanayotgan bo'lsa, so'ndirilgan oxak, yirik qum, mayda toshchalar solingan alohida oxurcha qo'yiladi. Mayda toshlar tovuqlar uchun ayniqsa butun donli ozuqalar bilan oziqlantirilganda juda foydali bo'lib, ozuqani xazmlanishini yaxshilaydi. Ozuqa bo'ri xam juda kerakli hisoblanadi, faqat uni maydalangan chig'anoqlar o'rniga to'liq berib bo'lmaydi, sof xolda beriladigan bo'lsa, bo'r parrandalar ovqat xazm qilish yo'llarida ivib burda –

burda bo'lib qotadi, natijada tovuqlar nobud bo'lishi mumkin. Tovuqlar bir kunda 2-3 marotaba oziqlantiriladi, shu oziqlantirishlarning birida ularga albatta parrandalar uchun maxsus chiqarilgan omuxta yem namlab, bug'lab beriladi. Maboda bunday omuxta yem topilmasa un xoliga keltirilmay yirik qilib maydalangan yoki ezilgan donlardan foydalanish mumkin. Bunday ozuqa tovuqlar qizilo'ngachini yaxshi tozalaydi va parrandalarning kayfiyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Namlab va bug'lab beriladigan ozuqani parrandalarga jig'ildonini to'ldirib olib tunashlari uchun kechki payt berilishi tavsiya etiladi, natijada tovuqlarning tuxum maxsuldorligi ortadi, o'sayotganlari esa yaxshi vazn orttiradilar. Tuxum maxsuldorligiga ratsiondagi kalsiy miqdori xam asosiy ta'sir ko'rsatadi. Tovuqlar saqlanadigan va asraladigan binolarni sanitariya nuqtai nazaridan baholash. Tovuqlarni saqlash uchun insonlar tomonidan bino, xonalar, katak deb ataladigan moslamalar, qafaslar yaratilgan. Bunday joyda parrandalar uchun gigienik sharoitlar: +25 °S xarorat, 65 -75% nisbiy namlik yaratilishi kerak, ichki tomonda kechasi tovuqlar dam olishi uchun qo'noqlar, tuxum tug'ishi uchun ostiga tuxum yig'iladigan g'aladon – yashikli uyalar barpo etiladi. Eng muhimi tovuqlar yashaydigan joy toza va quruq bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Tovuqxonada xar bir metr kvadrat hisobiga 2-3 ta tovuq to'g'ri kelishi kerak. Tovuqxonada ma'lum bir tartib – qoidaga amal qilinadi. To'shama muntazam almashtirib turiladi. To'shama ostidan polga so'ndirilgan oxak kukuni sepiladi. Uning ustiga 10 sm qalinlikda yog'och qirindisisepi chiqiladi. Devor, eshiklar, derazalar va shift sinchiklab ko'zdan kechiriladi. Devor va deraza oynalari orasidagi yoriqlar tuzatilib, yelvizak bartaraf etiladi[1;B -492-495].

Tovuqxona ichi parranda tezaklaridan muntazam tozalanib, axlatini to'planib qolishiga yo'l qo'yilmaydi, chunki tovuq go'ngidan ajralayotgan gazlardan tovuq nafas oladi va natijada parranda stress xolatiga tushadi.



Dorixonalarda sotiladigan preparatlardan tovuqlarni o'z tuxumini cho'qish kabi yomon odatini tashlashda foydalanish. Bunday preparatlarni tuxum cho'qish sabablari aniqlanganidan so'ng qo'llash mumkin. Vitaminol, Ryabushka, Reks Vital, Metionin kabi preparatlarni 10 kg ozuqa xisobiga 10-15 g dan qo'shib beriladi. Tuxumlarni cho'qib tashlab tovuqlar yeb ketishidan saqlashning yana xalqona usullari xam bor. Masalan, uyaga yasama tuxum qo'yish. Uyaga tennis, golf o'yinlarining to'pchalari yoki un, suv va tuz qo'shilgan xamirdan yasalgan tuxum qo'yiladi. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng tovuqlar yasama tuxumni cho'qishdan foyda bo'lmasligiga ishonadilar va tuxum cho'qishni bas qiladilar. Tuxum cho'qib yeb qo'yadigan tovuqni aniqlash. Aniqlab olingan tovuq galasidan ajratib olinib aloxida katak qafasga joylashtiriladi va kamida 2 hafta yakka xolda saqlanadi. Shu davr mobaynida tovuq to'la qiymatli ratsion asosida oziqlantiriladi. Agressiv tajovuzkor tovuqlarni so'yib yuborish shart emas, uning o'rniga tovuqning tumshug'i qirqib qo'yibyuboriladi. Ayrim parrandaboqarlaryoz mavsumida tajovuzkor tovuqni bir necha marta sovuq suvga botirib olishni tavsiya etadilar. Yangi tuxum qilishni boshlagan makiyonlarni yoshi katta tovuqlar bilan aralashtirib bir joyda saqlash yaramaydi, bu xolatda tovuqlar orasida jang kelib chiqishi mumkin. Tovuqlarni "bo'sh qoldirmaslik" uchun oshqovoq, olma, lavlagi, sabzi karam kabi ozuqalarni ipga osib qo'yib berish. Bunda tovuqlar ozuqalarni yeyish uchun bo'ynini cho'zadi, sakraydi, qisqasi band bo'lib qolib yaramas odati bilan shug'ullanmasdan qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Внутренние незаразные болезни сельскохозяйственных животных. Под редакцией И.Г.Шарабрина, Москва, 1985г. Издание 6-ое, исправленное и дополненное. 492-495 бетлар.

2. <https://webferma.com>